

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILIDA FONETIKMASHQLAR TAXLILI**

**Raxmatova Gulnozabonu Rashid qizi**  
Osiyo xalqaro universiteti 3- bosqich talabasi

**Annotatsiya:** mazkur maqola boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida fonetikaning nazariy asoslarini shakllantirish ahamiyati, yangi interfaol metodlardan namunalar tavsija qilinib yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, fonetika, nutq tovushi va harf, bo'g'in, metod, ta'lif, savod o'rgatish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora tadbirlari tog'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida "2020-2030- yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi"

10qabul qilindi. Bu respublikamizda davlat tili to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish va o'zbek tilinin xalqaro miqyosdagi obro'- e'tiborini oshirishga xizmat qiladi. Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his, kechinmalarni ifodalashda muhim o'rinn tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir, Bu vosita qanchalik takomillashsa fikr shunchalik aniq, ta'sirchan ifodalanadi. Boshlang'ich sinflarda ona tilini chuqur o'rganish zaruriyati tilning mana shu asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

11 Mamlakatimizda ta'larning eng asosiy zamini hisoblanuvchi umumiy o'rta ta'lif maktablari uchun Milliy o'quv dasturi ishlab chiqildi va "Milliy o'quv dasturi" deb nomlanishi biz yosh pedagoglarga katta umidlar baxsh etmoqda. Shuningdek, o'zbek tilini o'qitish metodikasini tubdan isloq qilish, ayniqsa respublikamiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar o'zbek tilini jadal o'rgatishni ta'minlaydigan zamonaviy darsliklar yaratish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Shu paytgacha Ona tili va O'qish fanlari alohida o'qitilar edi. Bu ikki fanni birlashtirgan yangi "Ona tili va o'qish savodxonligi" deb nomlangan yagona fan dars soati saqlab qolingga holatda tashkil etiladi.

Boshlang'ich ta'larning ona tili fani o'quv dasturi o'quvchilarida kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Davlat ta'lif standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi.

Ushbu o'quv dasturida 1-4-sinf o'quvchilarida tayanch hamda fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutilgan. Boshlang'ich ta'linda – o'quvchilarining savodxonligini ta'minlash, ularni og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishga o'rgatishdan iborat. Boshlang'ich ta'linda- o'quvchilarining savodxonligini ta'minlash, ularni og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishga o'rgatishdan iborat. Mazkur ona tili o'quv dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- 1.Savod o'rgatish va nutq o'stirish.

- 2.Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.

- 12 "Fonetika" bo'limining izchil kursi "Fonetika va grafika ", "Nutq tovushi va harf", "Unli tovushlar", "Undosh tovushlar", "Nutq a'zolari", "Lab tovushlari", "Til tovushlari", "Burun tovushlari", "Bo'g'iz tovushi", "Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi" singari mavzularni o'z ichiga qamrab oladi. "Nutq tovushi va harf" mavzusini o'tishda o'qituvchi ayrim so'zlarni o'quvchilar diqqatiga havola etib, bu so'zdagi tovushlarning talaffuzini qiyoslash, unlilar va undoshlarning xususiyatlarini aniqlash, ularning talaffuzida ishtirot etadigan nutq a'zolarini belgilashni topishlari mumkin.

13 O'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirish, ularni sintezlab o'qishga o'rgatishi zarur. Savod o'rgatish analitiksintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So'z bo'g'inga bo'linadi, bo'g'indan kerakli — o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o'qish jarayoni o'zlashtiriladi. Savodga o'rgatish davrida o'quvchilarga avval unli tovushni o'rgatishdan boshlanadi. Dastlab unli yozilishi talaffuziga mos keladigan so'zlar tanlanadi. Bolalarni yozuvga o'rgatishda so'z tarkibidagi harflarning to'g'ri, aniq yozilishi va qo'shilishiga daftarlarni ozoda tutishga bolalar e'tibori tortiladi. O'qituvchining savod o'rgatish davrdagi darslarni to'g'ri tashkil etishi, o'quvchilarning fonetik va grafik bilimlarni kelgusida puxta egallashlariga zamin yaratadi. O'qituvchining bu sohadagi yutuqlarilari uning dars o'tish usullari, mahorati, darsda qo'llaydigan didaktik materiallarga ko'p jihatdan bog'liqdir. Intefao'l dars jarayonini tashkillashtirish, o'quvchilarning dars davomida faollashuviga, ularni darsni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini o'sishiga sabab bo'ladi. O'qituvchi dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi, so'ngra sinfda har tomonlama muhokama etiladi. Bu esa o'quvchilarning o'tilgan mavzuni puxta egallashlariga zamin yaratadi. Inrefao'l usullar xilma-hil bo'lib, qaysi metodni tanlash o'qituvchining o'tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Buning uchun o'qituvchi doimo yangiliklar izlanishi, har darsda yangi-yangi usullarni qo'llashi, o'z bilimini doimiy ravishda oshirib borishi lozim. Savodga o'rgatish davrida o'quvchilar bilan didaktik o'yinlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratish lozim. Xususan, "Ranglar so'zlaganda", "O'zingni yelpi", "Olma terish", "Kungaboqar", "Ko'zgu", "Super lotto", "Piramida", "Aksini toping", "Poyezd", "O'zbekiston mevalari", "Ot va uning bolasi toychoq", "Rolli o'yin", "Ekskursiya", "Chechanlik" kabi didaktik o'yinlar shular jumlasidandir. Darslikka jumboqli topshiriqlarning kiritilishi o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishda, ularni topqirlikka va bilimdonlikka undashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, turmushda bola nutqida faol qo'llanadigan yoki ularga yaxshi tanish bo'lgan "ma", "ma-na", "nom", "ni-ma" kabi ba'zi so'zlarning darslikka kiritilishi ham, avvalo, alifbe davrining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarda muayyan harf-tovushga oid bilimlarni mustahkamlashda, ularga tavsiya qilinayotgan o'quv materiallarining yetarli darajada bo'lishiga, ya'ni ko'proq so'z o'qish imkoniyatini hosil qillishga, qolaversa, ish-harakatni bildiruvchi so'zlar (fe'l)ga oid boshlang'ich amaliy bilimlarni vujudga keltirishga qaratilgan.. O'qituvchi darslik materiallari bilan cheklanib qolmay, ushbu so'zlar mazmunini to'liq izohlashda turli mazmunli rasmlardan ijodiy foydalanishi maqsad muvofiqdir.

Quyida ana shu o'yinlardan namunalar keltiramiz: "Sirli kataklarni to'ldir" o'yini. O'quvchilarga kataklarni to'ldirib, tovushdor so'zlar hosil qilish vazifa qilib topshiriladi. Masalan, "choy" so'zini "loy" so'zigacha davom ettirish talab etiladi. O'quvchilar guruhlarga ajratilib galma – galda so'zlarni davom ettirishadilar. "Sirli kataklarni to'ldir" o'yini. O'quvchilarga kataklarni to'ldirib, tovushdor so'zlar hosil qilish vazifa qilib topshiriladi. Masalan, "choy" so'zini "loy" so'zigacha davom ettirish talab etiladi. O'quvchilar guruhlarga ajratilib galma – galda so'zlarni davom ettirishadilar. "Keyingi bo'g'inini top" o'yini. Berilgan bo'g'inlar ishtirokida so'z tuzish tushuntiriladi va qaysi o'quvchi ko'p so'z tuza olsa, o'yin g'olibi bo'ladi.

Masalan, bo, bu, ju, ni, lo, sa, mu....

1)Bola, bobo, bozor, bodom;

2)Bo'yin, bo'ri, bo'liq, bo'zchi;

3)Jo'ja, jo'ra, jo'xori,jo'ra;

4)Nima, nizom, nigoh, nido, nihol;

5)Lola, loyiq, lochin, lobar;

6)Savob, sarob, saxovat, sadoqat, sahifa...

15“Fonetika” garchand tilning tovush tizimi bilan ish ko’rsa-da, ammo o’quvchilarning so’z boyligini oshirish, tez va to’g’ri o’qish malakalarini takomillashtirish, fikrni ifodalashda tovushlarning boy imkoniyatlaridan foydalanish, mant yaratishga o’rgatish diqqat markazida bo’lishi lozim.

16Didaktik o’yinlar nazariy amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo’nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o’quvchilardagi tahlil qilish mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o’lhash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o’stirish, til o’rganish, yangi bilimlar olish faoliyatini rivojlantiradi. Shuni takidlab o’tish lozimki, ta’lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o’yinlar o’quvchilar tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Unga dam olish yoki jamoasi vaqt o’tkazish vositasi emas, balki ta’lim beruvchi faoliyati sifatida qarash lozim. Xulosa o’rnida aytish mumkinki, boshlang’ich ta’limning 1-4 sinflari bola hayotida muhim davrni tashkil qilib, o’quvchilarning keyingi davrdagi o’qish jarayoniga bo’lgan tasavvurida eng ahamiyatli davtdir. Dars mashg’ulotlari vaqtida har bir o’qituvchi o’z o’quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolaning o’qish, o’zlashtirish, bilim, ko’nikma, malakalarini egallash darajasi yuqori ko’rsatkichlarni tashkil etadi.

Maktablarda ona tili o’rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo‘yan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar qo‘p qirrali bo‘lib, ularni bajarish o’quvchilar ongini o’stirishga, ularga g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo’naltirilgan. Ona tilini o’rgatish natijasida o’quvchilarda o’z fikrini grammatik to’g’ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga riosa qilib ifodalay olish va uni imloviy to’g’ri yoza olish ko’nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o’quv predmeti sifatida o’zbek tilining o’ziga xos xususiyati bo‘lib, o’quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo’naltirilgan umumta’lim vazifalari bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Umumiyo‘rtta ta’lim mакtablarining boshlang’ich sinflaridagi ona tili va o’qish savodxonligi darslarida ”Fonetika” bo’limini o’qitish orqali o’quvchilarda mustaqil fikrlay olish, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish ishlari 1-4- sinflarda amalga oshiriladi.

Boshlang’ich sinf ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o’zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so‘zlarning o’zgarishi va gapda so‘zlarining bog‘lanishi haqidagi (grammatik, ya’ni morfologik va sintaktik); so‘zning morfemik tarkibi va so‘z yasalish usullari haqidagi (so‘z yasalishiga doir); so‘zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); o’zbek tilining to’g’ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so‘z yasalishiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, o’zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko’nikma va malakalarni ham o’z ichiga oladi. O’qituvchi boshlang’ich sinflarda o’qitiladigan barcha fanlarga oid darslarda so‘zni aniq va to’g’ri talaffuz qilish ustida doimiy ishlab boradi, shu maqsadda ko‘pincha so‘zni tovush tomondan tahlil qilishdan foydalanadi. Maktab dasturiga muvofiq, boshlang’ich sinf o’quvchilari fonetik-grafik ko’nikmalar tizimini hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va

jarangsiz undoshlar, jufti yo‘q jarangli va jufti yo‘q jarangsiz undoshlar; so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish, urg‘uli bo‘g‘inni ajratish ko’nikmalariga ega bo‘ladilar. Bolalar maktabga kelgunga

qadar ham nutqning tovush qurilishini amaliy o‘zlashtiradilar, ammo ular maxsus o‘qigunlariga qadar so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lishni, so‘zdagi tovushlarni izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. 1-sinf o‘quvchilarida so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish, bo‘g‘inlarga bo‘lish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish ko‘nikmasini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishslash, o‘z navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruqlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiatini, so‘z tarkibida bir-biriga ta’siri kabi ayrim elementar bilimlarni o‘zlashtirishga imkon beradi. “Kichik yoshdagi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati katta: a) fonetik bilimga asoslangan holda 1-sinf o‘quvchilari savod o‘rganish davrida o‘qishni va yozishni bilib oladilar; b) fonetik bilim so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish (tovushlami to‘g‘ri talaffuz qilish, urg‘uli bo‘g‘inni farqlash, orfoepik me‘yorga rioya qilish) asosini tashkil etadi; d) fonetik bilim morfologik va so‘z yasalishiga oid bilimlar bilan birga o‘quvchilarda qator imloviy malakalar (jarangsiz va jarangli undoshlarning yozilishi) shakllantirish uchun zamin bo‘ladi; e) fonetik bilim gapni ohangiga ko‘ra to‘g‘ri aytish, logik urg‘u va gap qurilishidagi to‘xtamlarga rioya qilish uchun zarur; f) so‘zning tovush tomonini bilish uning ma’nosini tushunish va nutqda ongli qo‘llash uchun muhimdir” Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga unli va undosh tovushlar, unlilar va undoshlarning grafikasi, imlosi, ularning alifboda joylashish tartibi; jarangli va jarangsiz undoshlar talaffuzi hamda imlosi; bo‘g‘in va bo‘g‘in ko‘chirish tartibi; so‘z urg‘usi kabilalar bilan bog‘liq amaliy ko‘nikmalar singdirilishi zarur. 1-sinf savod o‘rgatish jarayonida fonetika va grafikani o‘rganishga katta e’tibor beriladi, chunki o‘quvchilar o‘qish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar. Bu bilimlar keyingi sinflarda mustahkamlanadi, takomillashtiriladi. Misol uchun savod o‘rgatish davrida tovush va harflarga oid dastlabki tushunchalar beriladi. Har bir yangi tovush bilan tanishtirilganda o‘xshash tomonlari mustahkamlanadi, shu bilan birgalikda yangi tushuncha va atamalar beriladi. Milliy o‘quv dasturiga muvofiq nashrdan chiqqan Ona tili darsligida savod o‘rgatish davrida berilgan bilimlarni quyidagicha mashqlardan foydalanib mustahkamlash hamda qo‘sishma ma‘lumotlar berib o‘quvchilar bilimi boyitib borish mumkin. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ko‘chiradilar va bu so‘zlarining aytishiga e’tibor qaratadilar. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar : mashq, daraxt, payvand . Berilgan topshiriqni sharti asosida yozuv daftariga husnixat asosida ko‘chiradilar. O‘quvchilarning ayrimlarini tanlab olgan holda ushbu so‘zlarni talaffuz qilidiriladi. Ko‘pincha kuzatiladigan holat yuzaga keladi. Mashq so‘zini talaffuz qilganda sh va q tovushlarini orasiga i tovushini ortib talaffuz qilish va orttirib yozish holati uchraydi. Buni o‘quvchilarga talaffuz qilishida ham yozuvda i tovushisiz aytishga va yozishga o‘rgatiladi. Bunda ko‘proq ko‘z xotirasiga tayantirilib ko‘nikma hosil qildiriladi. Daraxt so‘zini talaffuz qilishda oxirdagi t tovushini talaffuzda tushib qolsa-da, yozish jarayonida xatosiz tushirib qodirmasdan yoziladi. Pavvand so‘zini ham yuqoridagi so‘zlar kabi tahlil qilinadi. Payvand so‘zini lug‘aviy ma’nosini tushuntirilib, imkon qadar amaliy ham ko‘rsatib berish mumkin. Agar oquvchilar orasida payvand qilish jarayoni kuzatgan yoki ko‘rgan o‘quvchilar uchrasa ularni ko‘rgan jarayaonini qayta hikoya qilib berishlarini so‘rash mumkin. Undan so‘ng yuqoridagi 3ta so‘zni tahlilidan xulosa qilgan holatda o‘quvchilarga qoidani soddaroq tilda tushuntirishimiz mumkin.

- Samarqand, payvand, go‘sht, daraxt kabi so‘zlardagi oxirgi tovushni taffuzda tushirib qoldirilsa ham yozuvda albatta yoziladi; - Mashq, harf, sinf so‘zlarining talaffuzida i tuvushni undosh tuvushlar orasiga orttirib talaffuz qilinsa-da yozuvda yozilmaydi. Ushbu qoidani o‘quvchilarga darslar davomida yoki shunga o‘xshash so‘zlarga duch kelib qolganda qayta takrorlatib borish o‘quvchilarning fonetik bilimlarini o‘stirishga yordam beradi. 1-sinf ona tili darsligining 1-qismida Fonetika bo‘limiga oid jami bir nechta savol va topshiriqlar berilgan bo‘lib, ular yozma

topshriqlar va og‘zaki savollardan iborat. Bu savol va topshiriqlarga misol tariqasida X va H tovushini farqlashga oid topshiriqlarni olish mumkin. Bo‘g‘iz undoshi h va til orqa undoshi x tovushlarini varqlash uchun quyidagi so‘zlar matn ichida keltirilib o‘tilgan. Rahmat, hech, ham, hamma, behad, xursand so‘zlarini o‘quvchilar daftarga kitobdan ko‘chiradilar va talaffuziga e‘tibor beradilar. Mashq va topshiriqlarda X va H ni farqlash uchun quyidagi so‘zlar qo‘llangan. - Baho, bahor, Bahora, hatto, anhor, mahorat; - axloq, xabar, xabardor, xorij, xola, xaridor. Bu so‘zlani o‘quvchilar xato qilmay yozishlar uchun bitta darsin o‘zi yetmaydi. Boshlangich sinf 4 yilni tashkil etsa shu davr davomida shu so‘zlarga topshiriqlar mobaynida duch kelib qolganda X va H ning farqli

tomonlarini ular ishtirok etgan sozlarni ko‘z xotirasi orqali o‘quvchilar qayta va qayta tushuntirilib ko‘nikma hosil qilib boriladi. Mavzularni mustahkamlash maqsadida 1-4-sinflarning 7minutlik husnixat daqiqalarida rasmli diktantlardan ham foydalanish tavsiya etiladi. Chunki rasmli diktanlar o‘quvchilarini yodida qolishi ko‘z xotiralarida yaxshi saqlanishiga yordam beradi. DTS asosidagi o‘quv dasturiga muvofiq 1-4- sinflarda

o‘quvchilar Fonetika bo‘limi yuzasidan quyidagilarni bilishlari zarur. Fonetika va grafikaga oid: - nutq tovushlari, unli va undosh tovushlar - jarangli va jarangsiz tovushlar - talaffuzda tushib qoladigan undoshlar - x va h tovushlarning talaffuzi - so‘zdagi qo‘sh undoshlar talaffuzi va imlosi - harf birikmalari - ` - tutuq belgisi - bo‘g‘in, bo‘g‘inga bo‘lish va bo‘g‘in ko‘chirish kabilari o‘rgatiladi Yuqorida o‘quvchilar bilishi kerak bo‘lgan talablarning barchasiga oid mashqlar 1-sinf ona tili darsligida berilgan bo‘lib. Milliy o‘quv dasturiga muvofiq: - jarangli va jarangsiz undoshlar talaffuzi va imlosini o‘zlashtirish, ular bilan

bog‘liq ravishda so‘z tarkibidayuz beradigan tovushlarning almashinishini bilish; Bu talabga oid bir nechta mashqlar va topshiriqlar berilgan. Misol uchun: so‘zlarga - im qo‘shimchasini qo‘shib yozish sharti berilgan. Bu topshiriqni o‘quvchilarga soddaroq usulda qoida hosil qilgan holda o‘rgatamiz. Chunki 1-sinfda o‘quvchilarga egalik qo‘shimchasi atamasи bilan

tanishtirilmaganligi uchun qo‘shimchani nomlamay yoki keyingi sinflarda bu qo‘shimchani egalik qo‘shimchasi deb atash mumkinligini aytgan holda o‘rgatish tavsiya etiladi. -im qo‘shimchasinai jarangsiz undoshlar bila tugovchi tovushlardan so‘ng qo‘shilganda uning jarangli juftiga alamshib qolishini amaliy topshiriqlar orqali bajartirilib bu bilimlari keyingi o‘rinlarda mustahkamlanib boriladi.

Jo‘nalish kelishi bo‘lgan -ga qo‘shimchasi q va k tovushlari bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda tovush almashinish hodisasi kuzatiladi. Yani bunday tovush bilan tugagan sozlarga -ga (jo‘nalish kelishigi) qo‘shimchasi qo‘shilganda qo‘shimcha tarkibidagi -ga qo‘shimchasi qaysi q va k tuvushini kelishiga qarab -ka yoki -qa o‘zgaradi. Bu topshiriqni mashq daftarlariga bajartiriladi. Bu topshiriqda olgan bilimlarini ona tili darslarining o‘tgan mavzuni takrolash qismida o‘tkaziladigan lug‘at va saylanma diktanlarda yuqoridagidek so‘zlardan foydalanib o‘tkazish va tez-tez takrorlatib turish orqali rivojlantirib boriladi.

Shuningdek darslikning 1- va 2- qismida ham bo‘g‘inga oid bir nechta topshiriq va savollar berilgan. Bu topshiriqda she‘rning har bir misrasi necha bo‘g‘indan iborat ekanligini topish kerak bo‘ladi. O‘quvchilar savod o‘rgatish jarayonida bilib olgan bo‘g‘inga bo‘lish usulidan yani kaftning ustki tarafini pastki jag‘imizga qo‘ygan holda she‘r o‘qiladi va har bir misra necha bo‘g‘indan iborat ekanligi topiladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, darsliklarda berilgan mashqlardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari: –to‘g‘ri talaffuz (orfoepiya) me‘yorlarini o‘zlashtirishi; –grafika, imlo qoidalari (harflarning shaklidan tortib toki har bir nutqiy shakl(qo‘shimcha, bo‘g‘in, so‘z, birikmava h.)ni xatosiz yozishgacha erishishi; –nutq a‘zolari va ularning faoliyati(ularning faoliyati bilan bog‘liq muammolar va nutq a‘zolarini asrashning nutq madaniyati bilan uzviy bog‘liqligi va b.)ni o‘rganishi; –nutq tovushlari va harflar, harf

birikmaları talaffuzi va imlosini o‘zlashtirish; –unli va undosh tovushlarni farqlash, ularning so‘z tarkibidagi o‘rni va shu o‘rni bilan bog‘liq talaffuzidagi o‘zgarishlar va shu o‘zgarishlarning (yozuvda) imloga ta’sirini amaliy o‘zlashtirishi; –ochiq va yopiq bo‘g‘inlar, ularning nutqqa ta’sirini amaliy o‘rganishi; –bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarida xatoga yo‘l qo‘ymaslikka erishishi; –nutqda so‘z urg‘usini o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashga odatlanishi mumkin.

**Foydalangan adabiyotlar ro’yhati:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.Toshkent shahri,2019 yil 21 oktabr O’zA.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 21-aprel.
- 3.<https://fayllar.org/ona-tili-fanidan-oquv-dasturi-1-2-4-sinf-uqtirish-xati.html>
4. A. G’ulomov, M.Qodirov,M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova, V.Karimova. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent -2012.144-bet.
- 5.Alifbe Metodik qo’llanmaRohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova, Mirhabib G‘ulomov.
6. Dadajon Sayfurov, Dilrabo Malikova. Respublika ta’lim markazi, 2021. A.G’ulomov, M.Qodirov,M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova, V.Karimova. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent -2012.144-bet
7. Sh. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-“O‘zbekiston”-2016.488B
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 80 b.
9. Qosimova K., Matchanova S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyeva Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi.-Toshkent:Nosir,2009.
- 10.Nabijyeva D. Zokirova Z. O‘zbek tili fonetikasi (O‘quv-uslubiy qo‘llanma). Andijon 2016- yil.
- 11.Nurmonov A.N. O‘zbek tili fonologiyasi.Toshkent. “Fan” 1990-yil.
- 12.Abduaazizov A.A. O‘zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. Toshkent. “O‘qituvchi” 1992 yil.
- 13.D.Sh. Yuldasheva. Ona tili 1-sinf II qism. Toshkent. “Novda” 2023 yil.